ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

AMIR TEMURNING JAHON DINLARIGA TOLERANTLIK MUNOSABATLARI.

Muratova Marg‘uba
SamDAQU talabalar dekanati tyutori

Annatatsiya. ushbu maqolada Amir Temurning jahon dinlariga tolerantlik munosabatlari.

Kalit so‘zlar: AmirTemur, tolerantlik, adolat, yurt diniy bag‘rikenglik, tinchligi, mamlakat farovonligi, manaviy meros.

Аннотация. Позиция Амира Тимура выражающаяся в терпимости к мировым религиям.

Ключевые слова: АмираТемур; терпимость, справедливость, национальный мир, национальное процветание, духовное наследие, религиозная терпимость.

Annotation. Amir Temur’s attitude of tolerance towards world religions.

Keywords: Amir Temur; tolerance, justice, national harmony, national development, spiritual heritage, religious tolerance.

KIRISH.

Amir Temur bolaligidan ma’naviy va milliy qadriyatlarga, sof islom diniga sadoqatli, mehnatkash samimiy oilada tarbiyalandi. Chunki uning otasi Muxammad Tarag‘ay o‘g‘lini eng yaxshi pandu nasihatlar bilan ulg‘aytirgan. Darhaqiqat, Amir Temur o‘zining butun faoliyati davomida otasining pandu nasihatlariga amal qilgan. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatlagan. Amir Temurning dunyoda eng ulug‘ va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat, islom homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo‘lgan fazilatlar “Temur tuzuklarida” o‘z ifodasini topgan. Bu fazilatlardan birinchisi va eng asosiysi, sof islom dini, Qur’oni Karim va uning g‘oyasiga cheksiz sadoqatidadir. “…Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim’’- deydi Amir Temur bobomiz, yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar sof din asosida qurilmas ekan, turatuzukka bog‘lanmas ekan undan saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi’’… . Shuning uchun ham men o‘z saltanatim binosini dini islom, tura va tuzuk asosida mustahkamladim’’. Mulla Salohiddin Toshkandayning “Temurnoma” kitobida shunday satrlar bor, “Sohibqiron Iskandariy Soniy, ya’ni Amir Temur aytur ediki: avval kunlarimda yetmish piri komilga qo‘l berdim. Yetmish marotaba o‘limdan najot topdim, yetmish dengizdan g‘avvos kabi suzib o‘tdim. Hargiz sharob-chag‘ir ichganim yo‘q va namozni tark qilganim yo‘q”. Ana shu manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Amir Temur bobomiz islomga juda e’tiqodli bo‘lgan. Amir Temur bobomiz o‘gitlarida shunday so‘zlar keltirilgan "biron ishni qilmoqchi bo‘lsam kengashib olib, Qur’on hukmi bilan ish qilardim, yana “har

ISSN 3030-3907

mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlaridan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlariga undasin". Sohibqironning ushbu o'gitlari hozirgi davrda ham yoshlarni savob ishlar qilishga undashda o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Amir Temur o'z reja va maqsadlarini amalga oshirishda, olimlardan, zodagonlardan, harbiy kishilardan va xalqqa ta'sir etadigan, obro'li, shuhratli, taqvodor ruhoniylarga tayangan. Ma'lumki, Amir Temur hayotida pirlari bo'lgan. Amir Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Tayobodiy, Mirsayyid Barakalardir. Bu zamondosh pirlaridan tashqari, ruhiy pirlari ham bo'lgan. Amir Temur bobomiz o'zidan avvalgi davrlarda yashab o'tgan, keyinchalik Amir Temur bilan, faqat tushlarida ko'rishib, ham suhbat bo'lgan pirlari ruhiy pirlari hisoblangan. Mirsayyid Baraka Amir Temur uchun alohida hurmatga, e`tiborga sazovor bo'lgan pir hisoblangan. Harbiy yurishlarda u doimo birga bo'lgan, g'alabaga ilhomlantirgan. Amir Temurning o'z davrida Mirsayyid Barakaga nisbatan katta izzat-ehtirom ko'rsatishi, uning payg'ambar avlodiga bo'lgan yuksak e'tiborining namunasi edi. Amir Temur ta'kidlaydiki, Tangri taoloning dini va Muxammad Mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Sohibqironning birgina ana shu so'zi uning butun saltanatining ezgulik va yuksak ma'naviyatga asoslangan g'oyasini, siyosiy va ijtimoiy mazmunini belgilab beradi. Uning islom diniga munosabati xalq manfaatlariga mos keladigan, uning taqdirini belgilaydigan ulkan hodisadir. Amir Temur bir haqiqatni yaxshi anglagan, jamiyat e'tiqodsiz yashay olmaydi. Odamlarga din kerak, imon kerak, ishonch kerak. Temur o'z tuzuklarida shunday degan, "Har yerda hamma vaqt islom dinini quvvatladim". Amir Temurning Qur'oni Karimni yod bilgani, diniy bahslarda yirik ulomalar bilan barobar so'z yuritgani uning ma'naviyati, iymonu-diyonati qanchalar pok va mukammal ekanligini bildiradi. Amir Temurning e'tiqodiga ko'ra, davlatda sof islom dini ustunligi, xuddi shu tufayli ham Amir Temur davrida islom dini ravnoq topdi, yuksaldi.

Diniy bag'rikenglik musulmon xalqiga azaldan xosligiga yana bir dalil shuki, mamlakatimiz hududida Amir Temur davrida ham turlicha e'tiqodlar yonma-yon yashay olganlar. Diniy bag'rikenglik insonga uning e'tiqodiga hurmat, insonni qadriyat sifatida e'zozlash, jamiyatning kelajagini ta'minlash, insoniyat oldida turgan muammolarni bartaraf qilish yo'lida dinga e'tiqod qiluvchi xalqlarni birlashtirish va ularni mulohaza-munozaraga yo'llovchi vositadir. Tolerantlik ko'p qirrali va ijtimoiy murakkab hodisa. Ayni chog'da, u ijtimoiy munosabatlar hosilasi sifatida jamiyatning muayyan madaniy-tarixiy holatiga muvofiq hodisadir. Unda jamiyatga xos bo'lgan mintalitet, insoniy mehr-oqibat, hurmat, muhabbat, bag'rikenglik darajalarini o'zida aks ettiradi.

ISSN 3030-3907

Tolerantlikning vujudga kelishi Abu Rayxon Beruniy nuqtayi nazariga ko‘ra – ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog‘langan. Tolerantlik xususiyatlarini o‘rganishda milliy an’analarga, milliy qadriyatlarga va milliy madaniyatga e’tibor berish lozim. Chunki tolerantlik xususiyati ham o‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Amir Temur o‘zining falsafiy tolerantlik qarashlarida gumanizm g‘oyalar, insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, baynalmilallik, go‘zallik tarbiyasini olg‘a suradi. Inson go‘zallikning gul toji ekanini yurakdan his qilgan Amir Temur shunday deydiki: “Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘li, e’tiborli kishilarini, olimlarini aziz tutdim, sayyidlari, xalqlariga ta’zim bajo keltirdim. Hurmatladim, ulug‘larini og‘alardek, yoshlarini esa farzandlarimdek ko‘rdim.”

Sohibqironning vatanparvarlik xislatlarini qadrlaganligiga misollar keltiramiz:

-Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvaratda bajariladi;

-Ishbilarmon, mard va jasur, shijoatli bir kishi, loqayd yuzlab kishilardan yaxshidir;

-Bir ishga kirishmay turib, undan qutilib chiqish yo‘llarini mo‘ljallab ol;

-Shijoatli kishilarni do‘st tut, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi;

-Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar;

-Botir jangda bilanar, dono mashvaratda;

-Mamlakat qufr bilan turishi mumkin,lekin zulm bor joyda turolmaydi;

-Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim;

-Xudo bitta uning sherigi yo‘qdir. Shunday bo‘lgach, Alloh taoloning muqaddas mulki, yer yuziga ham egalik qiladigan xudo ham bitta bo‘lishi kerak;

-Agar yerda va ko‘kda ikki xudo bo‘lsa, jahonning ishi buzuqdur;

-Har bir shaharda masjidlar, madrasalar qurishni, musofir yo‘lovchilar uchun yo‘l ustida robotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko‘prklar qurishni buyurdim;

-Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, agar kerak bo‘lsa do‘st uchun jonini ham ayamaydi;

-Boshga qilich kelsa-da,rost so‘zla;

Amir Temur jahon tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida mashhur bo‘lib, uning davlat boshqaruvida diniy bag‘rikenglik muhim o‘rin egallagan. U islom diniga e’tiqod qilgan bo‘lsa-da, boshqa din vakillariga nisbatan hurmat, adolat va bag‘rikenglik bilan yondashgan.

Temur o‘z davlati hududida yashagan turli millat va din vakillarining tinch hayot kechirishini ta’minlashga intilgan. U diniy nizolarni kamaytirishga harakat qilgan hamda mutaassiblik va diniy fanatizmga qarshi siyosat olib borgan. Uning fikricha, kuchli davlat faqat qudrat bilan emas, balki adolat va bag‘rikenglik asosida barpo etiladi.

ISSN 3030-3907

Amir Temur davrida musulmonlar bilan bir qatorda nasroniylar va boshqa din vakillari ham yashagan. Temur ularning huquqlarini hurmat qilgan, savdo-sotiq va diplomatik aloqalarni rivojlantirishda ularga imkoniyat yaratgan. Ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan olib borilgan diplomatik munosabatlar uning diniy bag‘rikeng siyosatini yaqqol namoyon etadi.

Temurning “Tuzuklari” asarida ham adolat, tartib va insonparvarlik g‘oyalari muhim o‘rin tutadi. U dinni jamiyatni birlashtiruvchi omil deb bilgan va uni zo‘ravonlik vositasiga aylantirmagan.

Natijada, Temur davrida turli din va millat vakillari bir davlat hududida tinch-totuv yashagan, savdo va madaniyat rivojlangan. Samarqand shahri esa ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan.

Shuningdek, Amir Temur ilm-fan va madaniyatga katta e’tibor qaratgan. U turli mamlakatlardan olimlar, hunarmandlar va san’atkorlarni Samarqandga jalb qilgan. Bu esa shaharning xalqaro ilmiy va madaniy markazga aylanishiga olib kelgan.

Amir Temurning diniy bag‘rikenglik siyosati uning davlatni boshqarishdagi eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, bu siyosat davlat barqarorligini ta’minlash, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va jamiyatda tinchlikni saqlashda katta rol o‘ynagan.

Amir Temur ulug’ligining zaminida uning ma’naviy sifatlari turadi. Sohibqiron bobomiz ma’naviyat, diniy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari markazida islom ta’limoti, Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, tavhid, tafsir, fiqx, tasavvuf ilmi va falsafasi turganligini alohida ta’kidlashga to’g’ri keladi.

Tasavvuf falsafasi Amir Temurga turonliklarning mo’g’ul istibdodiga qarshi erk va mustaqillik uchun boshlangan harakatlarga rahnomoligi uchun g’oyaviy asos bo’lib xizmat qildi, milliy qahramonga aylanishida ma’naviy asos bo’ldi. Tasavvuf mohiyatini yoshligidanoq teran his qilib, anglab etgan bobomiz yurt mustaqilligi uchun muzaffar kurashga otlangan edi. U butun umri mobaynida davrining ulug’ mutasavvuflari, pirlari bilan suhbatdosh bo’ldi, ularning pand-nasihatlari, ma’naviy yo’l-yo’riqlari va ko’maklari sharofati bilan milliy davlat asoslarini yaratdi.

Amir Temur mislsiz yorqin tarixiy shaxs sifatida o’zini tarbiyalagan, o’ziga ma’naviy oziq bergan, buyuk ishlarga chorlagan el-yurtining ilmiy-falsafiy ta’limotlariga katta qiziqish bilan qaragan. Ayniqsa, Sharq donishmandlari – Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari buyuk mutafakkirlarning tabiiyilmiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta’limotlaridan to’la xabardorligibugun hech kim uchun sir emas.

ISSN 3030-3907

Amir Temur Sharqona an’analarga sodiq qolib, vaqti-vaqti bilan olimlar, faylasuflar, hokimlar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislar, amirlar, vazirlar, dongdor san’at namoyondalari, turfa kasb-hunar egalari bilan kengashib, ularning maslahatini olib ish yuritgan. Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarida Eron imomlarining ulug’lari va Turon sohibi ixtiyorlarining fozillaridan bo’lmish nomdor ulamolar va fozilu fuzalolar bilan Amir Temur o’tkazgan kengash haqida hikoya qilingan. Unda Amir Temur, “o’tgan asrlardagi ulamolar sultonlarga yaxshilik va adolat bobida yo’l ko’rsatganlar, sizlar esa menga rahnomolik qilmaysizlar va men bajarishim vojib va lozim bo’lgan narsalarni menga aytmaysizlar… Menga tahsin aytish va mening mijozimga muvofiq gapirishingiz menga xush kelmaydi, vazifa shuki, sizlar har toifa har tomondan kelgansizlar, u tomonning yaxshi ham yomon ahvolu avzoyini menga aytinglar va hech nimani mendan yashirmanglar. Men bu so’zni sizlar menga ishonch bildiringlar yoki undan mening mulkimga biror foyda etsin, deb aytayotganim yo’q”, deydi.

Dunyo yaralibdiki, buyuk insonlarni kashf etadi. Shunday kishilar qatorida buyuk bobokalonimiz Amir Temur alohida o‘rin tutadi. Ul zotning hayoti-faoliyati, o‘gitlari yosh avlod uchun mislsiz ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘pgina ijobiy fazilatlar buyuk sarkarda hayot yo‘lini belgilab berdi. Amir Temurning asosiy maqsadi-adolatli buyuk bir davlat barpo etish bo‘ldi. Amir temur o‘z faoliyatida ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan birga madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat, ilm fan rivojiga alohida e’tibor bergan, mamlakatni boshqarishda olimlar, din ulomolari bilan maslahatu-mashvarat yuritgan.

Millatlararo tolerantlikda jamiyatdagi barcha millatlar teng huquqlilik, tinch-totuvlikda yashashlari ifodalangan bo‘lsa, fuqarolararo tolerantlikda insonlarning o‘zaro bir-biriga hurmatda bo‘lishi mehribonlikni, odamgarchilikni unutmasliklari ifodalanadi. Davlatlararo tolerantlikda esa davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, chegaralar daxlsizligini ta’minlash, tinchlikni saqlash muammolari ifodalangan. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi, ”Insonparvarlik-bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidandir. ”Buyuk sohibqiron har bir qilgan amaliy faoliyatini ongli ravishda mardlik, matonatlilik, kechirish va murosaviy totuvlik, tinchlik maqsadlarida, tolerantlik bilan amalga oshirgan. Amir Temur o‘z Tuzuklarida shunday deydi. “Musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalari, islom dini ilmlari, tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va muddarislar tayin qildim.[1]” “Shuning uchun ham men saltanatim binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqea va ishni to‘ra va tuzuk asosida ado etdim.[2] “Lashkar uchun maxsus qozi va raiyat uchun alohida qozi tayinladim; har bir mamlakatga

ISSN 3030-3907

shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin. Noiblarimga har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo‘lovchi musofirlar uchun yo‘l ustiga rabotlar solishni, daryolar ustiga ko‘priklar qurishni buyurdim.”[3] “O‘n birinchi (tuzukim) - farzandlar, qarindoshlar, yoru birodarlar, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, (mol mulk va naqd pul bilan) haqlarini ado etdim. O‘z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o‘tgan bo‘lsa, darhol (qo‘l oyog‘ini) bog‘lab, o‘ldirishga buyurmadim. Har kimni (turish-turmushning pastu balandlarida) turli yo‘llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko‘p issiq-sovug‘ini ko‘rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do‘stu dushman bilan kelishib yashadim.”[4] Bu haqda Herman Vamberi Amir Temur siyosati to‘g‘risida shunday deb yozadi: ”Ulug‘ amaldorlar o‘z vazifalarini bajargan paytda, soliqlar yig‘ish vaqtida yumshoq muomala qilishlari shart bo‘lgan. Qamchi ishlatish man qilingan, har bir vali o‘zining qamchisi kabi ahamiyatga ega bo‘lmasa, u kishini to‘ralik mansabiga loyiq emasligini uqtiradi. ”Buyuk sohibqiron bu siyosatida qa’tiy bo‘lib, butun umri bo‘yi amal qilgan.

Buyuk sohibqironning Turkistonda markazlashgan yirik kuchli va qudratli davlati tasodifan vujudga kelmasdan, balki o‘zining ma’naviy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan ilmiy va nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan asoslarga, aniq maqsadga ega bo‘lgan holda tashkil topganlar. Bu haqda temuriylar davrining mashhur tarixchisi Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida shunday deb yozadi: ”Amir Temur saltanat asosini to‘rtta asos – davomiylik, barqarorlik, hashamat va iftixor uzra o‘rnatib mustahkamladi”- deb ko‘rsatadi.[5] Demak, Amir Temur o‘z davlatini davlatchilikning ma’naviy, ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning ulug‘vor Sharqona xususiyatlariga, diniy e’tiqodlarining yuksak axloqiy fazilatlariga, jamiyatda boshqarishning qonuniy – demokratik insonparvarlik g‘oyalariga tayanib, uni kelajakda yanada rivojlantirib, takomillashtirib yagona qudratli huquqiy – demokratik, Turon-zamin xalqlarini birlashtiradigan markazlashgan davlatni tashkil etish maqsadiga asoslangandir.

Amir Temur uzoqga mo‘ljallangan davomiylik va barqarorlikka asoslangan bu dasturni amalga oshirishda, dastlab, mustaqil, qudratli davlatni, mustahkam armiyani tashkil etib, davlatchilikda, qadimiy qadriyatlar, fazilatli demokratik xususiyatlarni o‘rganib, zamonaviylashtirib, mamlakat birligi, raiyat osayishtaligi va tinchligini mustahkamlash, ilmu-fan, madaniyatni rivojlantirish, diniy islom tasavvufchiligini kengaytirish va uning ma’naviy salohiyatini oshirishdan boshladi.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR

1. Amir Temur.”Temur tuzuklari”,Toshkent,1991yil,80-bet
2. Amir Temur “Temur Tuzuklari”,Toshkent,1991yil,79-bet
3. Amir Temur “Temur Tuzuklari”,Toshkent,1991yil,80-bet
4. Amir Temur “Temur Tuzuklari”,Toshkent,1991yil,53-bet
5. Sharafiddin Ali Yazdy.”Zafarnoma”,Toshkent,1994yil,219-bet

ISSN 3030-3907